

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**NIZOMIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**



KURS ISHI

Mavzu: Xulqi og'ir bolalar bilan ishlashda sinf raxbarining roli

Bajardi:D.Boyqobilova

Qabul qildi:M.Rahmatullaeva

TOSHKENT 2014 yil

Mavzu: Xulqi og‘ir bolalar bilan ishlashda sinf raxbarining roli.

Reja:

Kirish:

Asosiy qism

- 1.Xulqi og‘ir bolalar xulq-atvorni to‘g‘irlashning psixologik masalalari
- 2.Xulqi og‘ir bolalar va o‘smirlarni tarbiyalashda sinf raxbarining roli
3. Ta’lim tizimida qiyinchiliklari bo‘lgan o‘quvchilar bilan olib boradigan tuzatish ishlarning mazmuni.

Xulosa:

Kirish

Mavzuning dolzarbligi. Respublikamizda amalga oshirilayotgan ma'naviy va ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning zamonaviy bosqichi o'quvchi shaxsi shakllanishida erkinlikni ta'minlashning yangi qirralari ochib berilayotganligi bilan tavsiflanadi. Bu boradagi milliy ta'lim modelimizning asosiy g'oyasi va mazmuni «Ta'lim to'g'risida»gi qonun hamda «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da o'z ifodasini topgan. Jumladan, «Ta'lim to'g'risida»gi qonunning ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy prinsiplarini o'z ichiga olgan 3-moddasida «O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining yo'nalishi: akademik litsey yoki kasb-hunar kollejida o'qishni tanlashning ixtiyoriyligi»¹ qayd etilganligi o'quvchi shaxsi, imkoniyat va ehtiyojlariga alohida e'tibor qaratilganligining tasdig'idir.

O'quvchi shaxsining kasbiy bilim olishdagi yo'nalishni ixtiyoriy tanlashi uchun sharoit yaratishda, avvalo, uni erkin fikrlovchi shaxs sifatida shakllantirish muammosi hal etilishi lozim bo'ladi. Jahon pedagogika nazariyasida erkin fikrlovchi, mustaqil shaxsni shakllantirishning umumiy asoslari keng miqyosda tadqiq qilingan va ko'plab natijalar qo'lga kiritilgan. Biroq, bunday tadqiqotlarning aksariyat qismi muammoning umumiy jihatlariga qaratilgan bo'lib, respublikamizda amalga oshirilayotgan ta'lim islohoti talablariga to'la javob bera olmaydi. Ushbu g'oya asrlar davomida ajdodlarimiz tomonidan ulug'lanib, rivojlantirib kelingan. Jumladan, Forobiy bu haqda quyidagi ibratli fikrlarni ilgari suradi: «Inson biron-bir kasbni egallashi uchun faqat tug'ma qobiliyati kifoya emas, kasb-hunarda kamolotga ham etishishi kerak. Kamolot insondan hunarning biron bir sohasini egallash bilan qanoatlanib qolmay, balki hunarni to'liq o'zlashtirishni talab etadi. Tabib faqat davolash bilangina shug'ullanib qolmasdan, tibbiyotga oid hamma ishlar bilan qiziqishi kerak. Bu hamma hunarlarga ham taalluqlidir» [8]. Kaykovus «Qobusnoma» asarida kasb-hunarni ulug'lab «Ey farzand, ogoh bo'lki, hunarsiz kishi hamisha foydasiz bo'lur va hech kishiga naf' etkurmas. Bilursanki, xori mug'ilonning tani bordur, ammo soyasi yo'qdur.

¹ Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori: // -T.: "Sharq", 1998. - 20 b.

hunarsiz kishi ham xori mugʻilon yangligʻ na oʻziga va na oʻzgaga foyda berur. Barcha donish va hunarning sarmoyasi: adab, tavoze, hayo, pokdillik, parhezkorlik, beozorlik, sabr va matonatliqdur» deydi [40]. Ulugʻ bobokolonimiz A.Navoiy oʻz gʻazallarida insonni vaqtni boy bermay ilm-hunar egallashga chaqiradi. «Ilm kasbini qildi to joni bor, hunar oʻrgandi onga ki imkoni bor».

Kurs ishining maqsadi: Xulqi ogʻir bolalar bilan ishlashda sinf raxbarining vazifasini pedagogik xususiyatlarni oʻrganish.

Kurs ishining oʻbekti: Xulqi ogʻir bolalar bilan ishlashda sinf raxbarining vazifasini oʻrganish jarayoni.

Kurs ishining predmeti: Xulqi ogʻir bolalar bilan ishlashda sinf raxbarining vazifasini oʻrganishning shakl,metod vositalar mazmuni.

Kurs ishining vazifalari:

- 1.Xulqi ogʻir bolalar bilan ishlashda sinf raxbarining roli mavzusiga oid ilmiy pedagogik adabiyotlarni taxlil etish.
2. Xulqi ogʻir bolalar bilan ishlashda sinf raxbarining vazifasini pedagogik jixatdan taxlil etish.
3. Xulqi ogʻir bolalar bilan ishlashda sinf raxbarining vazifasini oʻrganish.
4. Taʼlim tizimida qiyinchiliklari boʻlgan oʻquvchilar bilan olib boradigan tuzatish ishlarning mazmuni taxlil etish.

Kurs ishining tarkibi: Kirish, Asosiy qism, xulosa va adabiyotlar roʻxatidan iborat.

Asosiy qism.

1.Xulqi og‘ir bolalar xulq-atvorni to‘g‘irlashning psixologik masalalari.

Xulqi og‘ir bolalar ... hammaga ma‘lum bo‘lgan va afsuski, allaqachon ko‘nikib ketilgan bu atama ortida nimalar turadi? Militsiya xodimi uchun - u qo‘lida rovatka ushlagan bezori, bola o‘qituvchi uchun – sinfdoshlariga yomon ta’sir ko‘rsatuvchi “norasmiy, bolalar bog‘chasi tarbiyachisi uchun esa – harxashali injiq, engiltak tinib-tinchimas bola. Ota onalar uchun-chi? Har qaysisi uchun u o‘zgacha ma‘no kasb etadi. Ota onalar tushunishidagi qiyin bolaning mumkin bo‘lgan barcha variantlarni aytib o‘tish foydasiz, chunki har qanday bola ham tabiatan “qiyin” bo‘lishi mumkin. Odatda hamma bolalar ham tug‘ilgan vaqt laridayoq ota onalariga ma‘lum bir qiyinchiliklar keltiradilar. Ammo ba’zilar uchun muammo bo‘lgan narsa, boshqalarga hech qanday qiyinchilik keltirmaydi va u ko‘pgina sabablarga bog‘liq. Bolaga nisbatan ota onalarning tutgan yo‘li, oiladagi kadriyatlar tizimi, oila a’zolari o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarning bor yoki yo‘qligi, shuningdek boshqa ko‘pgina narsalar bolani tarbiyalash jarayonida muqarrar ravishda paydo bo‘ladigan qiyinchiliklarni bartaraf etish malakasini belgilab beradi.

Hamma kishilar ham bir xilda bo‘lmaydi, shuningdek, oilalar ham turlichadir. Shubhasiz bolalar ham bir – biriga o‘xshamaydi. Bu tabiiy hol. Lekin ko‘pincha kattalar buni unutib qo‘yadilar, o‘zlaricha qandaydir umumiy tavsiyalardan yordam ko‘rishga moyil bo‘ladilar va bunda: “bola... bajarishi kerak”, “bolaga mumkin emas” kabi so‘zlarni ishlatadilar. Bu esa xato. Bola avval boshdanoq hech narsani bajarishga majbur emas, unga hech narsa joiz ham emas. Aksincha, kattalar uning me‘yorida rivojlanishi uchun sharoit yaratishlari, uni kishilar orasida yashashga o‘rgatishlari, ularning xis-tuyg‘ularini, xohish-istaklarini va ishlarini tushunishlari lozim. Vaqt o‘tishi bilan, payti kelganda uning o‘zi nimalar qilishi kerakligini, kimga nimalar qilishga majburligini, kimning oldida qarzдорligini va bu qarzlarni boshqa kishilarga o‘z ota onalarga, dustlariga va nixoyat, o‘z bolalariga nisbatan mexr - muxabbat, mexribonligi bilan uzishni tushunib oladi.

Buning uchun esa bolani qanday bo'lsa shundayligicha qabul qilish uni tushunishga harakat qilish va uning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olib, u bilan bo'ladigan o'zaro munosabatlarning qo'shimcha qiyinchiliklar keltirib chiqarmaydigan, balki, aksincha oilada eng kadriyatli hisoblangan o'zaro xurmat, iliqlik va ximoyalanganligini xis etishga yordam beradigan usulini topish kerak.

Bolaga tug'ilishidan oldin va hayotining birinchi xaftalarida bo'ladigan munosabat ko'p jixatdan u bilan kelgusida qilinadigan munosabatlar harakterini belgilab beradi.

Gap kichkintoy bola haqida borganda " qiyin" atamasi qo'llanilmaydi. Har xolda ota onalarning "qiyin" chaqaloq, haqidagi shikoyatlarini eshitishga to'g'ri kelmaydi, garchi bu bosqichda qiyinchiliklar ko'p bo'lsa ham.

To'g'ri, bu qiyinchiliklar tashki, psixologik harakterda bo'ladi va ko'pchilik ota-onalar tomonidan muqarrar yuz beradigan, ammo vaqt inchalik xodisa sifatida idroq qilinadi. Biroq birinchi qiyinchiliklar urniga boshqalari paydo bo'ladi. Ular ba'an chakoloklik davrida, ayrim xollarda undan ham oldin-bolaning tug'ilishini kutish vaqtlarda yashirilgan bo'ladi.

Xali bola gudaklik paytida onasi unga qanday munosabatda bo'lish to'g'risida unchalik kaygurmaydi, u ana shu jajji jigargo'shasini parvarish kiliuga doir hamma ishlarga ulgursa va uxlab olsa etarli. Kichkintoyning qorni tuk, taglari quruq, yig'lamayapti, demak hammasi joyida.

Shu narsa aniqlanganki uyda xotirjamlik xukm surib, janjal va nizolar bo'lmasa, bola uchun ham yaxshi, u kattik o'xlaydi, ishtaxasi ham yaxshi bo'ladi. Bu bilan onasi uchun xuzo'r – xalovat baxsh etadi. Natijada shunday "doira", "zanjir" xosil bo'ladi: onasi uchun yaxshi bo'lsa bolaga yaxshi bolaga yaxshi bo'lsa – onasiga ham yaxshi.

Agar onaga yomon bo'lsa, uning emotsional holati bolaga ham ta'sir etadi. Xatto ona yuragining urushi, uning notinchligi, tashvishli yoki bir maromida urushi kichkintoyning kayfiyatini belgilab beradi.

Shunday qilib, onada ham, bolada ham bo'ladigan qiyinchiliklar avval boshidanok umumiydir. Kattalar esa buni har doim ham anglab etmaydilar. Faqat

ayrimlarga bolaning kechinmalarini ob'ektiv baholashga bo'ladilar. Agar ba'zilar bola biror narsadan iztirob chekanida yig'ilashi harxasha qilishini tushunsalar, boshqalar hech qachon bu haqida o'ylab ham ko'rmaydilar. Ular bolaning injiqligini yo e'tiborga olmaydilar, yoki uni har qanday usul bilan chalgitishga urinadilar. Buning sababini o'ylab ko'rish, tushunish uchun ularning vaqti ham, tajribasi ham etmaydi. Natijada ko'tilmagan vaziyat vujudga keladi: bola doimo "onaning psixologik holatiga moslashadi", onasi esa har doim ham bolaning holatini tushunmaydi. U bolasi xis qilayotgan qiyinchiliklarni uqib tushunib ololmaydi. U faqat kichkintoyning o'ziga qo'shimcha qiyinchiliklar tug'dirayotganini tushunadi xolos. Shundan keyin bola haqida qiyin, unga xalakit beruvchi, tashvish uyg'otuvchi, majburiyat yuklovchi, xovotirliklar keltiruvchi dastlabki, barqaror tasavvur xosil bo'ladi.

Shu tarika "qiyin" bolalar paydo bo'ladi. U kattalarning vujudga kelgan vaziyatga etarlicha baho bermagan, udan boshqa hech kim bolada paydo bo'lgan nuqsonlarni to'zata olmasligini, hech bir kimsa uning bolasini "muloyim" qilib qo'ymasligini anglagan vaqtda emotsional aloqaning bo'zilishi tufayli paydo bo'ladi.

Nima uchun kattalar bola bilan bo'ladigan munosabatlarida har qanday qiyinchilika duch kelganlarida baladan achiklanadilar va undan shikoyat qiladilaru o'zlarining imkoniyatlarini izlab ko'rmaydilar? Ular qarindosh-urug'lardan, tanishlardan, pedagoglardan, xato psixolog va psixoterapevtlardan maslahat suraydilar. Ulardan: uni, buni qilish, ma'lum vaqt dan keyin esa manna buni qilish kerak, shunda shikoyatlariga urin kolmaydi, hammasi o'z urniga tushib ketadi, qobulidagi aniq bir tavsiya, yo'l – yo'riqlar kutadilar. Vaxolanki bunday maslahatlar ko'p narsa bermaydi. Faqat ota-onalarning o'zlari vujudga kelgan vaziyatni tahlil qilishlari va aynan shu oilada, aynan shu bolaga nisbatan qanday yo'l tutish zararlighi va mumkinligini belgilashlari mumkin. Mumkin bo'lgan ko'pgina variantlar orasidan to'g'risini tanlashda ota-oalarga psixologning ham, tajribali pedagogning ham maslahatlari yordam berishi mumkin.

Jamiyatning axloqiy normalari va talablariga mos kelmaydigan axloqni ilmiy pedagogik adabiyotda umuman tarbiya asotsial axloq atamasi bilan belgilash qabul kilingan. Bolalarning normadan chetga chiqqan xatti – harakatlaridan (ularning harakterstikasi bosh miya patologiyasi bilan bog‘langan) farqli o‘laroq asotsial axloq ijtimoiy jixatdan determinizmlashgan, salbiy mikromuxitning ta’siri, oiladagi nonormal o‘zaro munosabatlar, oila va maktab tarbiyasidagi kamchiliklar, xatolar natijasida yuzaga keladi.

Psixologiya fani shuni ko‘rsatadiki, asotsial axloq faktlarning mazmun-mohiyati tarkibi ham, o‘ziga xos sifati ham tugma mexanizmlar bilan belgilanmaydi. “Qiyin” yoyinki “tarbiyasi og‘ir” bolalar esa pedogogik jixatdan qqarovsiz qoldirilgan bolalardir. Ular shaxsning axloqiy jixatdan o‘zgarishi - pedogogik xatolar oqibatidir.

Shaxsini ko‘zatish talab etiladigan keng doiradagi bolalar “ Qiyin” bola atamasi bilan belgilanadi. Kattalarning talablari maslahatlariga karshilik ko‘rsatadigan, ularning so‘zga kirmaydigan, injiq, o‘jar bolalar shu toifadagi balalar qatoriga kiritiladi. Ularning tarbiyasidagi bunday og‘ishlarning sababini aniqlash, bolaga nisbatan talabchanlik ko‘rsatish bilan bir vaqt da uning ehtiyojlari, qizikishlariga e’tibor berish va uni faoliyatning kollektiv shakillariga jalb etish – bolaning fe’l-atvorida paydo bo‘ladigan injiqlik, o‘jarlik, itotsizlikning oldini olish va ularni bartaraf etishning asosiy yo‘lidir.

Bolalarning ma’lum bir qismi sho‘xligi, intizomsizligi, qo‘rsligi bilan ajralib turadi. Bunday o‘quvchilarga individual yondoshish va ularning intizomsizlik sabablarini aniqlash lozim. Bunday bolalar bilan olib boriladigan ishlar ularning faoligini maksadga muvofik tashkil etish, qadr–qimmatini, malum darajada mustaqillikka bo‘lgan huquqlarini hurmat qilishni nazarda tutadi.

Xulq-atvorida mehnat qilish istagi va odatining yo‘qligi- yalqovlik bilan harakterlanadigan bolalar aloxida guruxni tashkil etadilar. Tarbiyachi bunday bolaning mehnat qilishga bo‘lgan intilishnini paykab olishi va xil yo‘llar bilan rag‘batlantirishi unda mehnat qilish ehtiyojini, uyg‘otish xilma-xil faoliyatdan kuvonch xosil qilishga o‘rgatishi lozim.

Yolgʻonchilik bolaning harakterli sifatlarida boʻlgan bolalar ham aloxida ajratib koʻrsatiladi. Boladagi bunday kamchilikka karshi koʻrashda haqiqatning xayoli va ongli ravishda boʻzulishini farq kilmok kerak. Bolalar yolgʻonchiligining haqiqiy sababini aniqlash, jamoada xakkonilik, oʻzaro ishonch, bir – birini hurmat qilish va talabchanlik sharoitini yaratish uchun tarbiyachi sinchkovlik bilan ishlashi, yologʻonning hunukligini, uning qoʻrqoqlik va ikki yuzlamachilik bilan oʻzaro bogʻliqligini bolaning izzat nafsiga tegmay xushmomilalik bilan koʻrsatib berish kerak.

Ayrim bolalarda ayni paytda boʻlgan muayyan bir ehtiyojning oʻzoq vaqt mobaynida kondirilmasligi tufayli ularda xulq-atvorining affektiv shakllari rivojlanadi. Manmanlik, tajavoʻzkorlik, utaketgan jizzakilik, kungli noziklik ular uchun harakterli xususiyatdir. Bular natijasida bolalarning qiziqishlar darajasi bilan uning jamoadagi oʻrni oʻrtasida oʻziga xos ziddiyatlar kelib chiqadi. Ichki ziddiyatlarni xal etish va bolalarda xulq - atvorning affektiv shakllari rivojlanishiing oldini olish uchun pedagogning oʻz vaqt ida aralashuvi talab etiladi.

Qiyin bolalar bilan olib boriladigan ishlar nazokat, individual yondashuvni talab etadi. Bu yondashuv birinchidan bolaga eʼtibor bilan, xayrixona munosabatni, ikkinchidan uning ijobiy fazilatlariga tayanishni va uchinchidan uning axloqiy kuchlari, potensional imkoniyatlariga ishonishni nazarda tutadi.

Hozirgi vaqtda bolalar tomonidan yoʻl qoʻyiladigan qonunbuzarliklarning oldini olishda maktabning roli juda oshdi. Eng yangi pedagogik texnologiyalar bilan kurollangan oʻqituvchi tarbiyaviy jarayonning bosh tashkilotchisi, oʻquvchiga, oʻquvchilar jamosiga, oilaga koʻrsatiladigan pedagogik taʼsirlarning muvofiqlashtiruvchisi sifatida namoyon boʻlmoqda.

Balogʻatga etmagan bolalarning qarovsizligi va qonun-buzarliklarining oldini olishni maktab tomonidan amalga oshirilayotgan yaxlit sistemaning bir qismi deb qarash lozim. Anna shu jarayon doirasida pedagoglarning sai- harakatlari quyidagilarga qaratilishi kerak:

- o'quvchi shaxsini tarkib toptirishga salbiy ta'sir etuvchi tashki omillar ta'sirining oldini olishga, bola huquqlarining bo'zishiga va buning oqibati sifatida o'quvchi tarbiyasining qiyinlashuviga olib keluvchi sabab va sharoitlarni yo'qotishga;

-butun tarbiya jarayonini to'zatishtga uning normallashtuvi ikki darajada ro'y beradi; a) bolaning rivojlanishidagi salbiy tomonlarni to'xtatish va barcha salbiy ta'sirlarni engib o'tish (to'zatisht va qayta tarbiyalash vazifalari); b) ancha yuqori daraja axloqiy, ijtimoiy barqaror va garmonik rivojlangan shaxsni tarkib toptirish. Uning asosida haqiqat, to'g'rilik, yaxshilik go'zallik, ma'suliyat, ong va xatti – harakat birligi yotadi.

Bunday yondoshuv o'qituvchilar tomonidan yo'l kuyiladigan tipik xatolar tizimini bilish va ularni puxta o'rganishni nazarda tutadi. Bolalar bilan ishlashdagi uzoq yillik tajriba, maktablar ish faoliyatini tahlil qilish, omillarning tadqiqotlari o'quv-tarbiyaviy ishlarning tarbiyaviy samarasini pasaytiruvchi bir gurux omillar mabablarini qarab chiqish maksadga muvofikligiga ishontiradi. Tarbiyaviy ishlar samaradorligiga salbiy ta'sir etuvchi, bir-birlari bilan o'zaro mustaxkam bog'langan tashkiliy, tarbiyaviy omil va muxit omili shunday omillardir. Har bir guruxni batafsil qarab chiqish mumkin emas, shuning uchun faqat pedagogik harakterga ega bo'lgan, ya'ni pedagogga-tarbiyaviy jarayonning tashkilotchisiga taalukli xatolarni taxlil qilish bilangina cheklanamiz.

O'qituvchi yo'l qo'yaadigan birinchi xato-o'quvchilarning yosh va individual xususiyatlarini bilmaslik yoki e'tiborga olmaslikdir. Bola o'zining individualligi bilan boshqalarga o'xshamaydi, u betakror. Uning o'ziga xos induividual xususiyatlarini bilmay turib o'quv–tarbiya ishlarini maksadga muvofik tashkil etish va o'quvchilarga puxta bilim berish mumkin emas. Ko'pchilik o'qituvchilar o'quvchining harkaterli xususiyatlarini aniqlashda muayan qiyinchiliklarga duch keladilar. Ayrim o'qituvchilar o'quvchidagi chetga chiqish xollarini ko'rmaydilar. Vaholanki bu chetga chiqish bolaning xulq-atvoridagi noxushliklarning asosiy manbai bo'lishi mumkin. Bu esa o'qituvchining puxta o'ylagan pedagogik qaror qabul qilishiga imkon bermaydi.

Agar yosh pedagoglar o'quvchilarning xatti-harakatidagi salbiy tomonlarni o'z vaqtida ularga ko'rsata bilmasalar, hozirgi holatda bolalar uchun ancha ahamiyatli bo'lgan faoliyat turlariga jalb qilish yo'li bilan ulardagi o'tkazib yuborilgan nuqsonlarni to'zlash qiyin bo'ladi.

Ikkinchi xatto-bolalarda ro'y berayotgan fikirlash jarayonlarining o'ziga xos xususiyatini etarlicha hisobga olmaslik, ularning bilimlarini o'zlashtirish sur'atiga ortikcha baho berish o'quv jarayonida o'rtacha o'quvchiga qarab ish yuritish, bolalardan har birining nerv sistemasi xususiyatini e'tiborga olmaslikdir. Ayrim bolalar muayyan sharoitda darhol to'g'ri yo'l topa oladilar, vazifalarni tezda bajaradilar, boshqalari esa sustkash, harakatlari ham erkin, bemalol emas. Uchinchilarida-bilimlarni o'zlashtirish sur'ati juda sekin va hokozo.

Agar o'quvchiga o'z vaqtida yordam ko'rsatilmasa uning o'qishda orqada qolishi kuchayadi u jamoada psixologik muvozanatsizlik, yolgizlik ishonchsizlik, ranj alam xissini boshdan kechiradi. Pedagogik jihatdan qarovsiz bolaning uzoq vaqt yomon holatda bo'lishi uning shaxsini o'zgarishiga olib kelmaydigina emas, balki yaxshi tashkil etilgan va ijobiy yo'nalishda bo'lgan jamoaning unga ko'rsatadigan ta'sirini kamaytirib yuboradi.

Pedagogik xatolarning keyingi tipi – qiyin o'quvchiga nisbatan salbiy fikrda bo'lishdir. Pedagogik jihatdan salbiy noto'g'ri fikirda bo'lish o'qituvchining o'quvchi, uning qobiliyatlari va imkoniyatlari haqidagi oldindan shakillangan, barqaror, taxminlarga asoslangan, soxta fikrlaridir. O'qituvchining salbiy fikrda bo'lishi odatda sub'ektiv bo'lib ishning haqiqiy ahvoliga javob bermaydi va insoniy munosabatlarga to'g'ri kelmaydi u o'quvchining xulq-atvoriga salbiy ta'sir etadi, uzoq davom etadigan mojarolarga olib keladi.

Tarbiyaviy ishlarni olib borishdagi to'rtinchi xato pand-nasixatlardan iborat bo'lib, u ba'zi o'qituvchilarning darslarida tez-tez qo'llanib turiladi. Turli xil tarbiyaviy tadbirlarning yuzaki nomigagina o'tkazilishi bolalarning passiv tinglovchi va oddiy ijrochilarga aylanishiga majbur etadi. Agar axloq normalarining o'zlashtirilishi kundalik faoliyatdagi barqaror ko'nikma va malakalar sifatida mustaxkamlab borilmasa tarbiyaviy ishlar o'quv, mehnat va

boshqa faoliyat turlaridan ajralib koladi. Bu xatolarning sababi odatda tarbiyaviy jarayonga yuzaki munosabatda bo'lish yoki uning qonuniyatlarini bilmaslikdadir. Ko'pincha pedagog mashakktali tarbiyaviy ishni ommoaviylik bilan almashtiradi, bolalar bilan individual ishlashga etarli e'tibor bermaydi.

O'qituvchilar tomonidan yo'l kuyiladigan yana bir xato tarbiyada o'quvchilarga umumiy ta'sir ko'rsatish, ularning faoliyatini xulq-atvorini biror tomonga yo'naltirish bilan cheklanish, ularda talab etiladigan xususiyatlar va sifatlar o'z-o'zicha har qanday izchillikda va birlikda shakllanadi degan soxta ta'savvurlardir. Keng tarqalgan xatolardan yana biri shundan iboratki, pedagog o'zini, o'zining shaxsiy tasirini asosiy tarbiyaviy vosita deb hisoblaydi. Bunda u tarbiyanaluvchilar tomonidan bajariladigan ishlar, bu ishlar mazmunining to'laqonliligi ularning bolalarning individual xususiyatlari va imkoniyatlariga muvofiqligi asosiy tarbiyaviy omil ekanligini mutlaqo unutib qo'yadilar. Tarbiyalanuvchilarni emas, balki tarbiyachi faoliyatini rejalashtirish kerakligi ham shundan kelib chiqadi.

Hozirda pedagoglar bolalarning o'qishdan tashqari vaqtdagi ijodiy faoliyatini tashkil etishda katta qiyinchiliklarni boshdan kechiradilar. Vaxolanki aynan o'quvchilarni qiziqtiradigan faoliyat soxalarida ayniksa fan, texnika, san'at sport soxasida ishtiroq etish ularga o'zining ong-bilim doirasini kengaytirishga bilimlarini chuqurlashtirishga imkon beradi. Aynan shunday faoliyat soxasida harqanday hayotiy vazifalarni xal etishga ijodiy yondosha biladigan yorqin shaxs tarkib topadi. Ijodiy faoliyat jarayonida bolaning badiiy didi, goyasizlik va pastkashlikka chet el "Ommoviy" madaniyati hodislariga nisbatan tankidiy munosabat shakllanadi.

Mana shuning uchun ham kichik yoshdagi o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlari namoyon bo'lishi va rivojlanishi uchun sharoyt yaratish muximdir har bir o'qituvchi qizikishlari bo'yicha shakllanadigan bolalar jamoalari ishiga rahbarlik qila bilishi kerak. Bolalar jamoasida ro'y bergan mojaroni to'g'ri va tezlik bilan bostira bilmaslik (mojaroga kirishgan tomonlarning qadr-qimmati va shaxsini kamsitmagan holda) ham o'qituvchilarning keng tarqalgan xatolaridandir. Janjali

vaziyatlar maktab hayoti uchun juda zararli bo'lib, nonormal axloqiy va psixologik sharoitni keltirib chiqaradi. Tarbiyachilar har doim ham jamoaning fikrini ayrim o'quvchilarning ijobiy fazilatlarini, muvaffaqiyatlarini qayd qilish mojarolar sababini operativ ravishda bartaraf etish yo'li bilan ular uchun yaxshi tomonga burib yubora olmaydilar. O'qituvchilar ishida odatda bolalar bilan bo'ladigan munosabatlarning avtoritar uslubi ustunlik qiladi. Bunday vaziyatlarda jamoadagi ayrim bolalarning xaq-huquqlarini to'g'ri yo'lga kuyish borasida pedagoglarning biror maksadga qaratilgan sayi-harakatlari talab etiladi. Afsuski, qiyin bolalar bilan bunday ishlar ko'pincha bir xilda olib borilmaydi. Bu esa ayrim o'quvchilarni sinif jamoasidan psixologik begonalashib ketishiga olib keladi.

Va, nixoyat, bolalar bilan olib boriladigan ishlardagi yana bir xato ayrim pedagoglarning "qiyin" bolalar taqdiriga beparvoligidir. O'qituvchining qo'rsiligi o'quvchining o'qituvchidan umuman maktabdan o'zoklashishiga sabab bo'ladi.

Ba'zi pedagoglar bolalar pedagogik qarovsizligining namoyon bo'lishi, moxiyati sabablari va shakllari haqida etarlicha bilim egallash bilan o'zlarini uruntirmaydilar. Natijada bunday bolalarni qayta tarbiyalash bo'yicha samarali ishlashga qodir bo'lmaydilar.

Umuman olganda o'qituvchilarning qarovsiz bolalar bilan ishlashga tayyorligi sistemali shaxsiy bilimlardan iborat bo'lib axloqiy psixologik, nazariy va amaliy tayyorgarlik uning strukturali tashkil etuvchisi sifatida namoyon bo'ladi. O'qituvchining o'z xatolarning oldini olish va ularni bartaraf etish qobiliyati pedagoglik maxorati bilan chambarchas bog'langan. Kasbiy maxorat darajasini oshirish ishlari o'quvchilarga ta'lim va tarbiya berish yuzasidan olib boriladigan kundalik amaliy faoliyat bilan o'zviy bog'liq ravishda amalga oshirilishi kerak. Bu urinda: a) psixologik – pedagogik adabiyotlarni muntazam ravishda o'qib borish;.

b) har bir pedagogning tashabbuskorligi va faolligini oshirishga yordam beruvchi ijodiy muxit yaratish;

v) metodik seminarlar va fan seksiyalari tashkil etish asosiy yo'llardan hisoblanadi.

Katta yoshli har bir kishi ertami kechmi bolasi bilan munosabatda muayyan qiyinchiliklarga duch kelayotganini ichki xis bilan sezib koladi va uni tan oladi-da, unga nisbatan : “Talab qilaman-bajarmaydi”, “men unga mexribonlik bilan muomala kilsam-u ko‘pollik qiladi”, “Iltimos qilaman -istamaydi”, “Unga yaxshi bo‘lishini xoxlayman-u esa yordamimni qabul kilmaydi”, “Yordam berishga harakat qilaman u buni rad etadi”, “Boshqa kilmayman deb so‘z bergan va kasam ichgan edi, o‘zi bo‘lsa”, “Hama narsani biladi, hama narsani tushunadi, lekin hamma narsaning aksini qiladi”, “Katta bo‘lsa aqli kirib qolar deb uylagan edim u butunlay o‘zi bilan o‘zi bo‘lib koldi”, kabilidagi iboralarni qo‘llaydi. Ota-onalarning shu va shunga o‘xshash xasratlari har bir pedagogga yaxshi tanish. Ko‘pchilik pedagoglarning o‘zlarini ham bola o‘smir muammosi qiyn axvolga solib qo‘yadi, unga nisbatan “qiyin” so‘zini qo‘llashga olib keladi.

Maktablarimizda qiyin bolalar muammosi bor, avval ham bo‘lgan va doim ham bo‘ladi. Xo‘sh uning mohiyati nimada? Sabablari nimalardan iborat? Bir qiyin o‘quvchi boshqasidan nimasi bilan farq qiladi? Tarbiyasi kiynlikni engib o‘tishda ta’sir ko‘rsatish yo‘llari nimalardan iborat? Bularni tushunib olishga urinib ko‘ramiz.

O‘qtuvchining tarbiyachilar, sinf raxbarlari va maktab direktorlarining o‘rinbosarlari seminarida: “Kimni, qanday belgilariga qarab qiyin o‘quvchi deb hisoblaysiz?”- degan savolga 500 ga yaqin tarbiya qilish qiyin bo‘lgan belgi ko‘rsatib o‘tildi. Pedagoglar tomonidan tez-tez qo‘llaniladigan bazi belgilarnigina qayd etamiz: o‘quvchi maktab kun tartibiga buysunmaydi, o‘qishga yomon munosabatda, ko‘pollik qiladi, mushtlashadi, darslarda e’tiborsiz, tengdoshlarini xafa qiladi, hech narsa ukimaydi, ko‘p kuladi, dangasa, sukinadi, qizlarga tegajoglik qiladi, ko‘rsatadi daydib yuradi, o‘qituvchilarni xurmat kilmaydi, tajavvo‘zkor, loqayd, xayvonlarni taxkirlaydi, maktab mulkini bo‘zadi, iltimos va tanbexlarga beparvo, almashtirib kiyiladigan poyafzal olib kelmaydi, iflos betartib va xokazo. Shunday tajriba o‘tkazildi. Bir sinfda dars olib boradigan o‘qituvchilarga sinf o‘quvchilar ruyxatini berib, o‘zlari “qiyin” deb hisoblaydigan bolalarni belgilab chiqishni iltimos qildilar. Deyarli har bir sinfda quyidagidek

manzara kuzatildi. Bir o'qituvchi ikki o'quvchini, ikkinchi o'qituvchi – to'rt o'quvchini qayd etadi (tabiyki bunda ko'rsatib o'tilgan nomzodlar ko'pincha bir – biriga to'g'ri kelmaydi), uchinchi o'qituvchi besh o'quvchini (ammo endi boshqalarni) ko'rsatadi. Ba'zi birlari esa umuman: “Bu erda bironta ham qiyn o'quvchi yo'q. Bularning hammasi normal bolalar. Ular bilan ishlash mumkin”, degan gaplarni aytdilar. Bir o'qituvchi esa: “ularning hammasini “qiyin” o'quvchilar katoriga qo'shsa bo'ladi, bu sinf emas qandaydir “maymunxona”, - deb aytdi.

Bu tajriba nimadan dalolat beradi? Birinchidan, tarbiya qilish qiyin bo'lgan bola muammosi ob'ektiv ravishda mavjud: haqiqatan ham normal ravishda tashkil etilgan tarbiya jarayoni unchalik samara bermaydigan yoki samarasiz bo'lgan bolalar bor. Ikkinchidan, tarbiyasi kiynlik holati har bir o'qituvchi uchun subektivdir. Diqqat bilan ko'zatganda shu narsa ma'lum bo'ladi, tarbiyasi qiyinlik holatining mavjudligi va uni engib o'tish faqat o'quvchi shaxsining rivojlanganlik holatiga emas, balki o'qituvchining maxoratiga (uning qiyin bolaga munosabati, u bilan muomalaga kirishish malakasi, ishchanligi va bunday bola bilan shaxsiy aloqalar o'rnatish bilishi hamda bunday bolalarga bo'ladigan munosabatlarning emotsionalligiga) bog'liq.

Qiyin o'quvchini tushunish, uni qanday bo'lsa shundayligicha qabul qilish va uning rivojlanishini davom ettirish (ya'ni, tarbiyaga karshilik ko'rsatishini engib o'tish) uchun faqat qiyin o'quvchilarning tashki belgilarini ko'ra bilishgina emas, balki avvalo tarbiyasi qiyinlik manbalarini o'rganish lozim. Yomonlikka karshi ko'rashishdan oldin, uni keltirib chiqargan sabablarni bartaraf etishga qodirligingizni o'yilab ko'ring.

Tarbiyasi qiyin o'quvchilarning uchta asosiy guruxini va tegishli ravishda ular bilan olib boriladigan tarbiaviy ishning uch yo'li (yo'nalishi) ni ajratib ko'rsatishga harakat qilamiz.

Birinchi guruh – tarbiyasi qiyinligi “o'tish davri” ning o'ziga xos xususiyatlari bilan belgilanadigan o'quvchilar. Hayoti va tarbiyasining nokulay sharoitlarida ba'zi bolalarda krizis, ya'ni jismoniy, psixialogik va ijtimoiy rivojlanishidagi

jiddiy o'zgarishlar davrida qiyinchiliklar paydo bo'lishini sezish qiyin emas. Gap boshlangich maktabdagi krizis (bolalikdan balogat yoshiga o'tish) haqida bormokda. Bu davrda bola va o'smirning rivojlanishi ikki xususiyat: intensiv va notekis rivojlanish bilan karakterlanadi. Mana shuning uchun ham bolaning jismoniy, psixik va ijtimoiy rivojlanishida to'xtalish, xato nomutunosbliklar bo'lishi mumkun. Masalan birinchi sinf o'quvchisining skleti to'zilishida togaylar etarlicha kotmagan bo'ladi, shuning uchun uyda va maktabda uzoq vaqt o'tirish (ko'pincha moslashtirilmagan mebellarda) uning ortikcha charchashiga sabab bo'ladi. Bu esa aqliy faoliyat samaradorligiga va binobarin, bolaning o'qishiga nisbatan emotsional holatiga ta'sir etadi: u savodsiz bo'lib boradi, uzoq vaqt o'tirib dars tayorlashni yaktirmayd, majbur qilishsa karshilik ko'rsatadi. O'smirlarda suyak muskul sistemasining jadal rivojlanishi bo'yining tez o'sishiga va yurak musqollarining tez ishlashiga (buning ustiga o'smirning yukori darajada harakatchanligi ham bor) tomir sistemasining (shu jumladan bosh miya tomirlarining) rivojlanishda orqada qolishiga olib keladi. Bularning oqibatida gipertonik va gipotonik holatlar, bosh og'rig'i, uyquchilik paydo bo'ladi. Bu o'smirning o'quv jarayoniga, hayotiy faolligiga, psixik holatiga ta'sir etadi. Agar uni biror narsa qilishga majbur etilsa, u o'qituvchilarga yaxshi tanish bo'lgan ximoya reaksiyasini: oshirilgan yoki kamaytirilgan ko'zgaluvchanlik, ko'pollik va qo'rslik, xaddan tashqari tanqidiylik, o'smirlik negativizimi (nima bo'lsa ham qarshilk ko'rsatadi) namoish qiladi. Ta'biyki, bu bolalarning ana shu davrdagi ta'lim va tarbiyasida muayyan kiynchiliklar uyg'otadi. Bunday qiyinchiliklar o'smirlik qarama-qarshiligi bilan bog'langan (xa, aytgancha ular V.A. Suxomlinskiyning "Fuqaroning tug'ilishi" kitobida moxirona tavsiflangan), o'smirlar bilan munosabatda pedagogni o'z nuqtai-nazarini o'zgartirishga majbur etadi. Agar nuktai-nazar o'zgartirilmasa, qiyin o'smirlar pedagoglar, va ota – onalarning diqqat etiboridan chikib koladilar. Shunday qilib, bu toifadagi bolalar va o'smirlarning tarbiyasi qiyinligini yo'qotish yo'li tarbiyadir, bu ishlarni bolalarning yosh, individual va jinsiy xususiyatlarini hisobga olgan xolda tashkil etishdir. Bunda avvalari yo'l qo'yilgan xato to'g'irilanadi va bartaraf etiladi.

Ikkinchi gurux – tarbiyasi qiyinligi jismoniy va psixik rivojlanishida chetga chiqish holatlari bilan bog‘liq bo‘lgan bolalar va o‘smirlardir. Bu akliy jixatdan usmay kolgan yoki xaddan tashkari erta va jadal rivojlangan bolalardir. Bundan tashqari u turli organlarning rivojlanishida jismoniy kakmchiligi bor, jinsmoniy majrux va mayiblar ham bo‘lishi mumkun. Yana bu bolalarning haddan tashkari kasalmandligi, odatdagi, surunkali kasallik, turli tipdagi bolalar xastaligi va boshqalardir. Shuni qo‘shimcha qilish kerakki, jismoniy rivojlanishidagi chetga chiqishlar psixik omil sifatida ham namayon bo‘ladi va jismoniy nosog‘lom bolalarning emotsional holatiga ta’sir etadi (loqaydlik, ruxiy sikilganlik, o‘z kuchiga ishonmaslik, gamginlik, siqilish, yig‘loqilik). Bunday bolalarning psixik rivojlanishida ham chetga chiqish ko‘zatiladi: psixikaning ayrim funksiyalari notekis rivojlanadi yoki rivojlanishda orqaga qoladi, surunkali psixik kasalliklar, yomon irsiyat, nevroz, psixozisteriya xastaligi, nevrasteniya va xakazo.

Bularning hammasi bolalarning xulq – atvorida tajavuzkorlik, dag‘allik, qo‘pollik, urushqoqlik, uy – xayolga botish, loqayd bo‘lib qolish, beparvolik paydo bo‘lishida ifodalanadi. Tabiiyki, bunda bolalarning ta’lim va tarbiyasida qiyinchiliklar paydo bo‘ladi. Bunday bolalarning tarbiyasi qiyinligini bartaraf etishga yondashuv – bu kasallikning davolanishini “rahm – shavkat pedagogikasi” ning aloxida tadbirlari bilan kushib olib borishdan iborat. Uning asosida o‘quv – tarbiya jarayoni talablarni amalga oshirishda, jazolashdan oldin ragbatlantirishi metodining ustun kelishida, psixoterapevtik ta’sir metodlari va usullarini qo‘llashda kasal bolalarga individual yondoshishni o‘z ichiga oluvchi davolash pedagogikasi asoslari yotadi.

Uchinchi gurux – bu tarbiyasi qiyinlik holati pedagogik qarovsizlik bilan beligilanadigan bolalar va o‘smirlardir. Bunda ularning ongida xulq – atvorida va emotsional – irodaviy soxadagi chetga chiqish pedagogik sabablar bilan bog‘liq bo‘lib, barqaror harakter kasb etgan bo‘ladi.

Pedagogik qarovsizlik belgilari: ongidagi chetga chiqish asosiy hayotiy tshunchalarni, axloqiy, estetik, siyosiy, iktisodiy va boshqa kategoriyalarni noto‘g‘ri tushunish, baholashning bo‘zilgan mezonlari bilan harakterlanadi.

Masalan, “o‘g‘irlaganman” o‘g‘irayapman va o‘g‘irayman, chunki baribir hamma ugirlayapti”, “Bugungi kun bilan yashayapman – baribir urush bo‘ladi va hamma uladi”, “Kamtar bo‘lish kerak emas, bu yomon fazilat, kamtar kishilar – landovur, bushang va lalaygan bo‘ladilar, ular bugungi hayotda hech narsa qila olmaydilar “Agar dusting” jinoyat sodir etgan bo‘lsa uni allbata, yashirish (oshkor etmaslik) lozim, shuning uchun u ham u do‘st”, “Har bir kishi o‘zi xoxlaganidek yashaydi, bu xatto boshqa kishilarning manfaatini daxl kilsa ham”.

-Axloqi (xulqi)dagi chetga chiqishlar bir kator xatti – harakatlaridagi og‘ishlar, qonunbo‘zarliklar va jinoyatlar sodir etishdan iborat bo‘lgadi. Boshqacha aytganda bu axloq normalariga to‘g‘ri kelmaydigan axloqdir. Eng ko‘p tarqalgan nojuya ishlar: shumlik va bezorilik, shaxsiy va jamoat va mulkini o‘g‘irlash, jinsiy buzuqlik bilan bog‘liq bo‘lgan nojuya harakatlardir. Bu ro‘yxatga qoida bo‘zishning yangi turlari ham kushiladi, ya’ni: urushish – jinoiy tudalar o‘rtasidagi nizolar, tovlamachilik va reket, taxqirlash va tengdoshlarini jinoyat maqsadida ta’qib qilish, qo‘rqitib (do‘q qilib) tovlash, portlatib yuborish va ko‘poruvchilik bilan po‘pisa qilish va xokazo. O‘smirlar orasida yana alkogolizm, giyoxvandlik kabi illatlar ham toboro ko‘payib bormokda. Bu esa o‘smir – o‘quvchilarning pedagogik qarovsizligini yanada ko‘proq murakklalashtirilmoqda.

- Emotsional- irodaviy soxadagi chetga chiqishlar xilma – xil voqea xodisalardan turlicha emotsional ta’sirlanish (o‘smir quyidagilardan xursand bo‘ladi: kampir yiqilib tushdi, kichkintoy bola yiqilib burnini pachoq qilib oldi, o‘qituvchi siniq stulga o‘tirdi); voqiea va hodisalarni turli xilda idroq qilish (“Yana o‘sha musikiy lektoriy.....”, “Ota – onalar ishdan vaqtli o‘aytishdi – yana nazorat”, “Ular bolalar sog‘lomlashtirish lageriga yo‘llanma sotib olishda – yozda erkinlik bo‘lmaydi”); turli xildagi jazava holati (haqiqiy axvolni turlicha aks ettiruvchi yorokin xis – xayajonli extiroslar: o‘smirning ishi, xatti – harakatidan jaxli chiqan va gazablangan o‘qituvchi uni koyib urishganda u xursand, ashula aytadi va yiglaydi). Shuningdek g‘amginlik, xafalik, loqaydlik kek saklash, dargazab bo‘lish, yig‘loqilik, o‘zining emotsional holatini boshqara olmaslik,

qo'zg'alish va tormozlanish jarayonlarining betayinligi, yaqin kishilarga nisbatan beparvolik, mexr – muxabbat va yaqinlik tuyg'usining yo'qligi.

-Yuqorida ko'rsatib o'tilgan chetga chiqish turlari bolalarning insonning rivojlanishiga, ularning boshqa kishilar (shu jumladan tengdoshlari, ota – onalar va pedagoglar) bilan bo'ladigan aloqalariga, o'smirlik yoshiga xos bo'lgan xilma – xil faoliyat turlariga kirishishning muvaffaqiyatli yoki muvaffakiyatsiz bo'lishiga ta'sir etadi. Pedagoglarning tan olishiga qaraganda bemavrid ovkatlanish, uxlash, bekorchilik, sayr qilish, kuchada sandiroqlab yurish, shiyponchada o'tirish, urishish, kishining gashini keltiradigan kiyimlar kiyish, qiliqlar qilish, pardozi – andoz qilish ularning sevimli faoliyat turlaridandir.

-Bu chetga chiqishlarning paydo bo'lishiga asos bor. Oilada ota yoki onaning yo'qligi, bolaning yolgiz ota yoki yolg'iz onaning tarbiyalashi, tashqi o'quv-tarbiya muassasalari ta'siri yo'qligi (bola bosh vaqtida biron bir faoliyat bilan shugullanmaydi) bunday sabablardan hisoblanadi. Bulardan tashkari tarbiyaviy ta'sirning salbiy omillari: ota – onalarning ichkilikbozligi va axloqsizligi, madaniy muxitning yo'qligi, bolalarni huquq normalariga zid faoliyatga jalb etish, ularni huquqlarini poymol qilish, bolalarga jismoniy va psixik zulm o'tkazish, tengdoshlarining salbiy ta'siri, maktab va oiladagi "tarbiyaning" gayri pedagogik metodlari ham bor.

-O'qituvchilarni pedagogik qarovsizlik sabablarini xali yosh, sharoitlar yomon, axir odam tarbiya ko'rmay usadi – da kabilidagi ochik – oydin talkin qilishdan ogoh bo'lish qilish lozim. Hamma narsa bolaning muxitining ijobiy va salbiy ta'sirlarini qanday idroq qilishga bog'liq. G.A.Fortunatov shunday deb yozgan edi: "Bolaning harakteri faqat muxitning ta'siri ostida rivojlanmaydi, balki bolaning munosabatlari o'z muxitida qanday shakllanganligi, u shu muxitda nimalarga qizikishiga ham bog'liq bo'ladi..... Agar bir bolada ichkilikbozlik, beadablilik va shuxliklar qiziqish uyg'otsa, boshqasida ular qo'rkuv, vahima, jirkanish yoki nafrat va qarshilik xissini uyg'otishi mumkin". Buni tushunish nima uchun nobop oilalarda yaxshi bolalar etishib chiqishni va aksincha bo'lishini tushunishga imkon beradi. Va yana, bu g'oyaga amal qilib, tarbiyasi

qiyinlik bartaraf etish yoʻlini salbiy muxitga murosasiz munosabat uygʻotish (shakllantirish)dan qidirish mumkin.

Nixoyat, pedagogik qarovsizlikning oxirgi belgisi shaxs salbiy fazilatlarining barqarorligi, yaʼni: yalqovlik, qoʻpollik, beparvolik, shavkatsizlik, ugrilik qilish ehtiyoji va xokazo. Haqiqatdan ham, bolalarning “suramasdan olishi” (ruchka, oʻchirgich, konfet va xokazolarni) bilan “oʻgʻirlik” deb nomlanuvchi qonunga karshi harakat (ish) oʻrtasida chegara kaerda? Umuman, odamlar orasida biror marta ham “suramasdan olmagan” kishi topiladimi? Extimol boʻlmasa kerak. Qiyin oʻsmirlarda esa bu amalda barcha hayotiy vaziyatlarda boʻlib turadigan barqaror xodisa. Misol tarikasida V.Levinning “Gipnozchining tavba qilishi” kitobida keltirilgan ota – onalar xotini koʻrsatishimiz mumkin. “Eng qoʻrqinchilisi – oʻgʻirlik Bogʻchada ham, maktabda ham uyda ham ugirlash mumkin boʻlgan hamma narsani olib ketishga harakat qiladi. Chuntakka tushadi. Eng kulgilisi shuki, arzimagan narsani ham umardi-yu, uyga tashlab qoʻyadi, berkitadi va uni unitib qoʻyadi. Bular uyinchoklarning qandaydir singan detallari, qaravot, podshipniklarni sharchalari,.... Pullar, asosan mayda chakalar: kutichaga solib qoʻyadi, berkitadi bir kuni esa ogzidan puflab yuborishga majbur qildim..... Maktabda esa – kalam, buyok, muykalamlar, oʻqituvchining hamma magnitlarini tashib ketdi. Menda shunday taassurot tugʻildi: uning qoʻllari goʻyo biror narsani yashirincha olib ketish va berkitish uchun yaratilgandek. Urushdim, burchakka toʻrgazib quydim, kunlarning birida kamar bilan savaladim.....! Boshqa kilmayman deb vaʼda berdi, uch kundan keyin esa....”

Pedagogik qarovsiz bolalar va oʻsmirlarning belgilarini ancha batafsil taʼriflagach, shuni taʼkidlaymanki (bu tajribadan ham yaxshi maʼlum), bu tarbiyasi qiyinlikning ancha murakkab tipi. Bolalar bu nuqsonni engib oʻtish uchun maxsus yondoshuvga, aynan qayta tarbiyalashga ehtiyoj sezaдилar. Bu jarayon esa bola shaxsining uch soxasiga: ongiga (ishontirish), axloqiga (faoliyatining barcha turlaridagi oʻz nuqtai nazarini oʻzgartirish) va emotsional – irodaviy soxalariga (tarbiyaning qaytarish – baholash tarbiya metodlarining prinsipial jixatdan boshqacha taktikasi) uzoq vaqt davomida pedagogik taʼsir koʻrsatishni talab

etadi. Bunday xolda Sinf raxbarining vazifasi – tarbiyalashga bo‘lgan karshilikni to‘g‘ri engib o‘tishdan iborat.

2.Xulqi og‘ir Bolalar va o‘smirlarni tarbiyalashda sinf raxbarining roli

Xulqi og‘ir bolani qayta tarbiyalash uning harakterini va psixikasini, uning olamga bo‘lgan munosabatini, binobarin o‘zining tarbiyalash uslubi va metodlarining noto‘g‘riligini anglash, ularni ayni zamonda o‘zini, o‘zining o‘g‘li yoki qiziga bo‘lgan munosabatini o‘zgartirish zarurligi bilan bog‘langan. Ana shu o‘zgartirish va qayta ko‘rish ham o‘ziga, ham bolaga nisbatan aniq pozitsiya (nuktai nazar)ni talab etadi.

Ko‘pincha ota-onalar, o‘z xatolarini tuzatish uchun o‘zlarining rejalari, orzu-umidlari, kasbiy jixatdan o‘lish imkoniyatlaridan voz kechadilar tush vaqt larini kurbon qiladilar va bu bilan yangi xatoga yo‘l qo‘yadilar. Chunki ko‘p narsadan voz kechadigan kishining psixologiyasi, taajubki, xudbin kishi psixologiyasidir. Dastlabki muvaffaqiyatsizliklardan oq u bolani emas, o‘zini ayaydi, bolani yaxshilikni bilmaslikda ayblaydi. Bola, ayniqsa o‘smirlar, kattalarning bunday pozitsiyasidan kayguradi, unga qarshi norozlik bildiradi.

Agar ota-onalar bola bilan munosabatlarda otalik yoki onalik burchi, fuqqarolik vijdoni, oilaviy or-nomus pozitsiyasida tursalar, boshqa gap. Faqat shu pozitsiya asosidagina oilaning sog‘lomlashishi, bola bilan munosabatlari o‘zgarishi mumkin.

Oiladagi o‘zaro munosabatlarni qanday qilib sog‘lomlashtirish mumkin? Avvalo ota-onalar o‘rtasidagi munosabatlar, ularning oilaviy muammolarni xal etishga yondoshuvi, bola tarbiyasiga bo‘lgan qarashlari o‘zgartirilishi kerak. Quyidagilar oila muxitini sog‘lomlashtirishning umumiy sharti sifatida namoyon

bo‘ladi: mojarolar qanday sabablar bilan va kimning tashabbusi bo‘yicha paydo bo‘lishidan qat’iy nazar, er-xotinlardan biri uni (ya’ni, mojaroni) har qanday usul (yon bosish, erkalash, murosaga kelish, va’da berish, kelishish, tinchlantirishga harakat qilish, sherigini tushnish) bilan sundirish majburiyatini o‘z zimmasiga olishi lozim.

Keyinchalik, bola, uning kelajagi uchun, har ikki tomonning xoxishi bilan oilani saklab qolish, oiladagi munosabatlarni sog‘lomlashtirish lozim. Bular natijasi ularoq shunday qoidalar ishlab chiqiladi:

- 1. Keskin kelishmovchiliklar sababini aniqlash va ularni qat’iylik bilan bartaraf etish, xatti-harakati va ishlaridagi jushkin emotsionallikni ba’manilik, okilona yo‘l tutish bilan almashtirishga harakat qilish;

- 2. Oilaviy kelishmovchiliklarni xal etish uchun sharoit yaratilmaguncha bir-birlarining qarashlari va nukta-i-nazaridagi kelishtirib bo‘lmaydigan ziddiyatlardan kochish;

- 3. Barcha oila a’zolari o‘rtasidagi munosabatlar asosiga ularni bir-biridan ajratib yuboradigan narsalarni emas, balki ularni birlashtiradigan narsalarni qo‘yish kerak.

- 4. Bir-biriga nisbatan xaddan tashkari talabchan bo‘lmaslik, unchalik ahamiyatli bo‘lmagan vokea-xodisalarga aloxida ahamiyat bermaslik.

- 5. Boshqasining pozitsiyasida bo‘lishga harakat qilish.

- 6. Bolalar oldida bir-biriga ushkirmaslik, munosabatlarni oqilona yo‘lga qo‘yish, aniqlash, bir-biriga tanbex berishdan o‘zini tiyish.

- 7. O‘zaro gina-kudratlardan kochish (ular keskinlikni va ishonchsizlikni keltirib chiqaradi).

- 8. O‘zining biron-bir narsadan norozligini rafikasi bilan yolgiz munosabatda, iltimos, istak ko‘rinishida ifodalash.

- 9. Qandaydir vokea yoki oila a’zolarining xatti-harakati munosabati bilan noxush tuyg‘ular ta’sirida qabul qilingan qarordan o‘z vaqtida voz kechish. Uning oldiga bir oz vaqt o‘tgandan keyin xotirjam ruxiy holatda qaytish.

- 10. Rafikasining bolaga nisbatan qoʻllayotgan choralariga hech bir xolatda aralashmaslik, garchi bular bolaning sogʻligiga zarar etkazmaydigan.

- jazolash bilan bogʻliq boʻlsa ham. Rafikasining xatti-harakatidan norozi boʻlsa, uni keyinroq aytish.

- Qiyin bolalarning ota-onalari odatda bolalarning xulq-atvoridagi salbiy jixatlarni (ularning qaydarajada ifodalanganlik darajasidan qatʼiy nazar) kriminal xodisa deb biladilar va oʻgʻli yoki qizining axloqidagi har qanday chetga ogʻishlardan iztirobga tushadilar. Ulardagi bunday kechinmalar ularning notoʻgʻri ish koʻrishlariga sabab boʻladi. qayta tarbiyalash esa ijobiy koʻrsatmalar, ijodiy fikrlar va optimizmni talab etadi. Salbiy narsalarning rivojlanishi doimo ijobiy narsalarning rivojlanishi bilan tuxtalishi mumkin. Buning uchun ana shu salbiy narsadagi asosiy kamchilikni (bu boshqa salbiy fazilatlarni oʻziga buysundiradi) aniqlash lozim.

- qayta tarbiyalashning asosiy yoʻnalishi-oʻgʻli yoki qizida butun hayot faoliyati bilan bogʻliq boʻlgan umumiy hamda konkret faoliyat turi (oʻquv faoliyati, uy yumushlari, oʻz-oʻziga xizmat koʻrsatish) bilan bogʻliq boʻlgan maxsus mehnat malakalari shakllantirishdan iborat. Ota-onalar qanday mehnat turlarida qanday malaka va koʻnikmalar yaxshi namoyon boʻlmasligi, dangasalikning qanday belgilari ustun kelishini (muntazam ravishda topshiriqlarni bajarishdan bosh tortish; oʻz ishlarini tashkil etishni istamaslik; ishdagi qiyinchiliklarni engib oʻtish xoxishining yoʻqligi; oʻz ishini boshqalar zimmasiga yuklashga harakat qilish; boshlagan ishini oxiriga etkazishni xoxlamaslik; muayyan bir narsa xususida imkoniyatlari va qobiliyatlari boʻlgani xolda ishni sifatsiz bajarish; jismoniy yoki akliy zoʻrikish bilan bogʻliq boʻlgan ishlardan boʻyin tovlash; oʻzining sustligi yoki vijdonsizligini oklashga harakat qilish) koʻzatadilar.

- Koʻrsatib oʻtilgan belgilar yalqovlikning barcha koʻrinishlarini qamrab olmaydi, ammo ular eng koʻp tarqalgan va yaqqol ifodalangan belgilardir. Bundan tashkari, ota-onalar zoʻrikishni chetlab oʻtishga harakat qilishda odatdagi muomala shakllari qandayligini koʻzatadilar va qanday irodaviy sifatlarni (qatʼiylilik,

intizomlilik, uyushkoklik, maksadga qaratilganlik) tarbiyalashga asosiy e'tibor qaratish kerakligini belgilaydilar.

- Bu xolda ota-onalar bolaning xususiyatlariga qarab unga o'z qobiliyatlarini muvaffaqiyatli qo'llay olishi mumkin bo'lgan yoki unga muayyan qizikish uyg'otadigan ishlarda uning faolligini rivojlantirishga harakat qilishlari kerak. qizikarli yoki bolaning qobiliyatlariga javob beradigan ish muvaffaqiyatga erishish imkonini beradi. Muvaffaqiyat esa, olimlarning fikricha, bolaning mehnatdan keyin bo'ladigan sa'yi-harakatlari uchun muxim omil hisoblanadi. U endi mehnatdan bosh tortmaydi, balki, aksincha, o'z kuchini boshqa faoliyat turlarida sinab ko'rish istagini bildiradi. Asta-sekin u egallagan malaka va ko'nikmalar, tajriba, o'ziga ishonch majburiy mehnat turlari (o'qish, uy yumushlari va boshqalar)da unga muvaffaqiyat keltiradi. Ma'lumki, bolalar nimani bilsalar shuni bajaradilar. Ko'pchilik ota-onalar bolaning ichki kuchlarini doimo foydali ishlarni bajarishga, o'zining xulq-atvorini o'zi tashkil etishga, oilaning boshqa a'zolari to'g'risida gamxurlik qilishga safarbar etish uchun bolalar bilan birgalikda mehnat qilish qoidalarini ishlab chiqadilar.

- Maktabda bolalarni mehnatga jalb qilish usullaridan farqli ularoq (bu erda ishlar individual ravishda, gurux bo'yicha yoki jamoa bilan birgalikda tashkil etiladi) oilada bolani qayta tarbiyalashda faqat ota-onalar bilan bolalarning birgalikda bajaradigan ishlari ancha samaralidir. Bunday ishlar jarayonida kattalar quyidagi usullardan foydalanadilar:

- 1.Tanlangan mehnat turining bola uchun ahamiyatini tushuntirish (har qanday ishda qayta hamkorlik qilish istagini uyg'otish uchun kattalar ijobiy natijalar bahosini oshirishlari mumkin).

- 2.Bolaning nafsoniyatiga tegmaslik (qiyin bolalar o'z muvaffaqiyatsizliklariga beparvo emas. Ulardan ogir iztirobga tushadilar, biroq irodasining kuchsizligi, tajribasizliklari tufayli topshirikni sifatli bajara olmaydilar. Ota-onalar tanbex berish, nasixatlar, salbiy baholardan voz kechishlari kerak. Bolani umidvor qilish, yupatish, taskin berish, xazil-mutoyiba foyda keltiradi).

- 3. Ishni bajarish muqarrarligini ta'kidlab o'tish (ota-onalar ish vaqt ini belgilaydilar va bir oz vaqtdan keyin yoki darhol uni bola bilan birga bajarishga kirishadilar. Agar bola turli bahonalar bilan o'zini ishdan olib kochishga urinsa, ota-onalar ishni bajarish muddatini orqaga suradilar, boshqa kun va soatni tayinlaydilar).

- 4. Bolaning dastlabki muvaffaqiyatlarini yoki xatto oddiy urinishlarini ham ma'qullash (ota-onalar har qanday ishda bolalarning takroran hamkorlik qilish istagini uyg'otish uchun ijobiy natijalarga baho berishda uni bir oz oshirishlari mumkin).

- 5. Bolaning ishda o'z-o'zini nazorat qilishi va mustakilligini, xatto ma'lum darajada tavakkal qilishini ragbatlantirish yo'li bilan xatolarning oldini olish (ota-onalar bolaga shunday deydilar: "Qara, bu erda xato bo'lishi mumkin...", "Noaniqlikka yo'l qo'ymaslik uchun harakat qil" va xokazo).

- Bolaning hayot tarziga asta-sekin va izchilik bilan boshqa faoliyat turlarida (o'qish, sport va xokazolarda) takomillashish qoidalari joriy qilinadi. Masalan, o'qish qoidalari:

- 1. Darslarni doimo bir vaqtda tayyorlash. Istisnolarga yo'l qo'ymaslik.

2. O'qituvchini diqqat bilan tinglash, hammasini eslab qolish va tushunishga harakat qilish.

3. Tushunmagan hamma narsalarni o'qituvchilardan albatta surab bilish. Kishining eshitgan, tushungan, takrorlagan va qo'llagan narsalar yaxshi eslab qilinadi.

4. Taqqoslashni, asosiy narsani, topishni, biron bir narsaning o'xshash va farqli tomonlarini aniqlashni o'rganib olish. Asosiy narsani bilsang –kolgan hamma narsani eslaysan. Asosiysi kuchirib olish, takrorlash va ulardan amalda foydalanish.

5. Aql-idroq, xotira va nutq xuddi mushaklar kabi mashq qilganda rivojlanadi. Xotira va diqqatni doimo mashq qildirish, ko'zatish va tavsiflashni, ko'rgan va o'qigan narsalari haqida gapirib berishni o'rganish.

6. Qiyin darslarni, murakkab topshiriqlarni birinchi navbatda tayyorlash kerak.

7. Diqqat-e'tibor bilan o'qish, zexni o'tkirlik, tashabbuskorlik va idroqlilikni rivojlantirish, o'qishda qiyinchiliklardan qochmaslik.

8. Doimo o'z oldiga: "Nima uchun?", "Nimaga?", "Bu qanday paydo bo'ldi?", "Bu nimaga olib keladi?" qabilidagi savollarni ko'yish kerak.

9. O'z ishida o'z-o'zini nazorat qilish va o'z-o'zini baholash malakalarini egallab olish, ishidagi xatolarni topa bilish.

Kuchli, sog'lom va mehnatsevar bo'lish uchun:

Mehnat qilish, sport bilan shug'ullanish, sutka mobaynida kamida 2-2,5 soat faol harakat qilish lozim.

Kattalar o'z qo'llari bilan qila oladigan hamma narsani ulardan o'rganish, biror narsani uddalay olmasa, so'rashdan uyalmaslik. Buning uchun har bir ishda ularga doimo erdam berish, ular bilan birgalikda, ularning yonida ishlash.

Gigiena qoidalariga qat'iy rioya qilish, o'z ish urnini xuddi o'z gavdasining tozaligiga qaragandek toza tutish.

O'qish, mehnat qilish, sport bilan shugullanish, uynash, televizor ko'rishni bir-birlarni bilan almashtirib turish.

5. Biron bir kasbni o'rganish, yangi mehnat malaka va ko'nikmalarini egallab borish, maktabda o'rganganlarni uy yumushlarida qo'llash.

Bunday qoidalarni ishlab chiqishda bolani qayta tarbiyalashda ota va onaning roli bir xilda emasligini tushunishi lozim. o'g'lining yalqovligi-bu otaning bola tarbiyasida yo'l qo'ygan xatolarni natijasi, shuning uchun bolani qayta tarbiyalashda u etakchi rol o'ynaydi. Xatto ota biron bir sabab bilan vaqtincha ayrilikda bo'lganida yoki oilasi bilan yashamayotgan vaqt da ham, agar u o'g'lining taqdiriga ma'suliyat bilan qarasa, o'g'liga ta'sir ko'rsatishi mumkin. o'g'lining enida bo'lganida esa uning burchi - o'zi sevgan ishga o'g'lini ham qziqtirishdan, topshirilgan ishni sifatli qilib bajarishga o'z maslahati bilan yordam berishdan iborat.

qizining dangasaligi – bu endi onaning aybi. Bunday xolatda onaning vazifasi qiziga avvalari o'rgata olmagan narsalarini o'rgatishdan, ya'ni uy-ro'zg'or ishlariga qarashish, uyning saramjon-sarishtaligi, oiladagi katta va kichiklar haqida gamxurlik, jismoniy va akliy mehnat malakalarini egallashga yordam berishdan iborat.

Tarbiyasi qiyinlik bolaning xudbinligi tufayli vujudga kelgan bolalar o'zlariga nisbatan aloxida yondoshuvni talab etadilar. Bunday bolalarni qayta tarbiyalash ularning faolligini, o'zligini namoyon qilish soxasidagi qobiliyati va imkoniyatlarini oila yoki sinf jamoasi manfaatlariga qaratish bilan bog'liq. Bunday bolalarga pedagogik ta'sir ko'rsatishning asosiy metodi ularni jamoa bilan birgalikdagi oshiriladigan ishlarga jalb qilishdan iboratdir.

- Ma'lum bir sabablarga ko'ra xatti-harakatida yolg'onchilik illatimustaxkamlanib kolgan o'g'il va qizlar aloxida e'tiborni talab etadi. Bunda, avval, bu kamchilik negizini topish va uni bartaraf etish kerak. Eng xavfli- ota-onalarning o'zlari elgon ishlatishdir. Buni ular ko'pincha o'zlari anglamagan xolda bolalar yoki boshqa kishilarga nisbatan qo'llaydilar: o'zlari bajara olmaydigan narsani va'da qiladilar, bolaning ishtiroqida yolg'on gapiradilar.

- Bir-biri bilan bola va tevarak-atrofdagilar bilan samimiy, to'g'ri munosabatda bo'lish, so'zning ustidan chiqish hamda o'g'li yoki qizidan va'dalarining bajarilishini talab etish – yolg'onchilikning oldini olish va uni yo'qotishning asosiy yo'lidir. Ba'zi xollarda ota-onalar bergan va'dasini bajarmaganligi uchun farzandlarini jazolashga kirishadilar: bola istagan u yaxshi ko'radigan, nozu-ne'matlarni cheklaydilar, bola bergan va'dasini bajarmaguncha uning iltimosini rad etadilar, u bilan rasmiy munosabatda bo'ladilar, va xokazo.

- Bolalardagi yolg'onchilikning boshqa manbai-fantaziyadir. Bolalar kichik o'smirlik yoshgacha turli xildagi xikoya, vokea-xodisalarni o'ylab topadilar. Ota-onalar ba'zan yolg'onni fantaziyadan farqlab, ajratib olishga qiynaladilar. Shunday xollar ham bo'ladiki, bunda qizlar tengdoshlar e'tiborini o'ziga jalb qilish uchun o'zlari haqida shunday uydirmalarni gapirib beradilarki, bundan ota-onalarning yurak xuruji tutib koladi. Shunga o'xshash xollarning hammasida asosiy sabab

ularning mashxurlikka intilishidir. Agar bu sababni fosh etishga erishilsa, bolaga o'zini boshqa yo'l bilan ko'rsatishga imkon berish kerak: masalan biron bir ishda o'z qobiliyatlarini namoyon etishi va muvaffaqiyatga erishishda bolaga yordam berish, tengdoshlari orasida o'smir bola yoki qiz haqida ijobiy fikr uyg'otish lozim va hokozo.

- Fantaziya yolg'on gapirish odatiga aylanib kolmasligi uchun istalgan soxada (kishilar bilan bo'ladigan munosabatlar bundan istisno) yolg'onni tukib chiqarish mumkin degan ishonch tugdirish muximdir. Yolg'on tufayli xatolarga yo'l kuyiladi, ko'ngilsizliklar kelib chiqadi, boshidan kechiradi, qishilarga va, tabiiyki yolg'onchining o'ziga yomon munosabat paydo bo'la boshlaydi. Agar yolg'on bolaning sinf jamoasidagi noxush axvoli bilan bog'liq bo'lsa, yordam surab o'qituvchiga murojaat qilish mumkin.

- Yolg'onchilikning uchinchi manbai – jazolanish mumkinligidan kurkishdir. Bu kamchilikning oldini olish va bartaraf etish choralari shundan kelib chiqadi: har qanday arzimagan bahona bilan bolani jazolashga yo'l qo'ymaslik. Bolaga o'zi qilgan aybni yoki nojuya ishini anglash va tan olish imkonini berish, uning aldamchiligining yomon xatti-harakat (ish)ligini tushuntirishi, ota-onalar uni jazolash emas, balki yordam bermoqchi ekanliklariga ishontirish kerak. Shunda bolalarda ota-onalardan biror narsani yashirish, ularga yolg'on gapirish niyati o'z-o'zidan yo'qoladi. Bu esa umuman jazolashni istisno qilish kerakligini bildirmaydimi? Yo'q, aslo bildirmaydi.

- Agar bola o'z aybiga ikror bo'lsa, uni jazolash maksadga muvofik emas. Bordi-yu o'g'li yoki qizi xatolarini takrorlasa, ularni tuzatishni xoxlamasa, jazolashga yo'l kuyiladi. Jazolashning turli xillari farq qilinadi. Masalan, jazolash-ta'kiklash: uyin-kulgularni, va'da kilingan sayr-tomoshalarni, birgalikda bajarilmoqchi bo'lgan ishlar, sayoxatlarni ta'qiqlash va xokazo; jazolash-maxrum etish: biron bir huquqlardan – muxim oilaviy ishlarni, vokealarni muxokama qilishda ishtiroq etish huquqidan, vokea-xodisalarda (oilaviy bayramlarda) bevosita katnashish huquqidan, ma'lum bir vaqt ga yordam surab murojaat qilish huquqidan maxrum etish va xokazo; jazolash-o'zoklashtirish: ota-onalar o'g'il

yoki qizlari bilan rasmiy munosabat urnatadilar va bu bilan ular bilan muomala qilishni istamasliklarini ta'kidlab utadilar. Yolg'onchilik salbiy fazilat sifatida xali mustaxkalanib ulgurmagan, uning dastlabki ko'rinishlari paydo bula boshlagan vaqt da bu usul juda samaralidir: zero bunda bola o'ziga bo'lgan munosabatning o'zgarishidan juda og'ir iztirobga tushadi.

Shu bilan bir qatorda jazolashga bir qator talablar ham qo'yiladi:

1. Jazolash mantiqiy yakuniga etkazilishi kerak, ya'ni ota-onalar o'z qarorlaridan kaytmaydilar;
2. Jazolash mojaroni tugatishi lozim: kilingan ish haqida qayta eslanmaydi yoki kelgusida ta'na kilinmaydi;
3. Jazolashga shoshish kerak emas: bolaning ayibni tan olib xatoga yo'l kuyish mumkin, bu bilan esa unda kattalarga nisbatan ishonchsizlik mustaxkamlanishi, ularning xakkonniy emasliklariga ishonch paydo bo'lishi mumkin. Jazolashni orqaga surish, jazolanishni kutish bo'lib o'tgan voqea-xodisaning moxiyatini anglab etish, o'zini qilgan nojo'ya ishini, xatosini o'ylab ko'rish imkonini beradi.

Agar ota-onalar bolaga nisbatan qo'yiladigan va yuqorida aytib o'tilgan talablarga rioya kilsalar, ota-onalari uni tushinishlariga, to'zalishiga yordam berishlariga ishongach, ular yolg'on gapirmaydilar.

Yolg'onchilikning turtinchi manbai – o'zini nomoyon qilishda noto'g'ri ehtiyojdir. Bolada tengdoshlari orasida mashxurlikka erishishi imkoniyatlari bo'lmaganda (bush o'zlashtirish, biron bir faoliyat yoki muomalada kerakli malaka va ko'nikmalarning yo'qligi, tevarak-atrofdagilar bilan aloqaga kirisha bilmaslik, etarlicha bilimdon emasligi va xokazo), u o'zida bo'lmagan takdirlashga loyik ishlari, muvaffaqiyatlari, imkoniyatlari bilan maktana boshlaydi. Bu, odatda, o'smirlik yoshida tez-tez uchrab turadi.

Bolaning qobiliyatlarini kashf etish va rivojlantirish, ijobiy fazilatlarini asosida tengdoshlari orasida yukori xak-huquqlarini ta'minlash, munosabatlar tajribasini boyitish – yolg'onchilik ko'rinishlari bo'lgan bolalarni qayta tarbiyalashning asosiy yo'lidir.

Haqiqatni aniqlash metodi qayta tarbiyalashning asosiy metodi sifatida namoen bo'ladi. Ota-onalar hamma narsani tushunib olish, to'g'ri qaror qabul qilish uchun haqiqiy vokealarni, bola yo'l kuygan nojuya ishning haqiqiy manzarasini aniqlash juda muximdir.

Bola dastlabki nojuya ishlarini tushunmasdan, bu ishning oqibatini o'ylamasdan qiladi: qizi dugonalari oldida maktanish uchun onasining ziragini oladi; o'g'li qizikarli kitob sotib olish uchun otasidan pul suraydi, lekin unga sigareta sotib oladi va xokazo. Bunday ishlarining hammasi bolalarning manmanligi, shuxratparastligi, engiltakligi, o'zining tantiqligi va injiqligini jilovlay bilmasligi, xoxish-istagini tuxtata olmasligi tufayli sodir bo'ladi. Yukorida ko'rsatib o'tilgandek, bola nima mumkin-u, nima mumkin emasligini va nima uchun mumkin emasligini yaxshi bilishi kerak. o'shanda unda elgon gapirish, nojuya ishlar qilish uchun bahona ham topilmaydi. Lekin kungilsiz vokea sodir etilgan bo'lsa, uni xolisona o'rganib chiqish, o'ziga xos oilaviy tergov o'tkazish, nojuya ishning sababini ochish lozim. Bu maksadda quyidagi usul va metodlardan foydalaniladi:

Modellashtirish. Ota-onalar bolaning hamda vokeaning boshqa ishtiroqchilarining xatti-harakatlari va kilgan nojuya ishlarining ketma ketligini tiklaydilar: ro'y bergan vokeaning barcha tafsilotlarini, uning qanday bo'lganligini tavsiflab berishni suraydilar, unisi nima degan-u bunisi nima deganini surishtiradilar. Bu vokea ishtiroqchilaridan har birining, shu jumladan bolasining ham, aybdorlik darajasini aniqlashga imkon beradi. Har doim ham aytilgan so'zlarga ishonish kerak emas. Gap faqat vokea ishtiroqchilarining aytganlari bir-biriga to'g'ri kelmasligida emas, balki bolaning ko'p narsani ko'ra olmasligi, nazardan kochirishi, tushunmasligidadir.

Bolaning axloqini genetik taxlil qilish. Bunda bolaning javobgarlikdan kochishga bo'lgan barcha urinishlari, tipik vaziyatlardagi axloqining o'ziga xos xususiyatlari esga olinadi, uning tasodifiy ishlari bilan harakterli fe'l-atvori o'rtasidagi mantikiy bog'liqlik aniqlanadi. Bu boladagi kamchilik mustaxkamlangan yoki mustaxkamlanmaganligini, qanday choralar ko'rish

mumkinligini tushunib olishga yordam beradi. Har qanday xatti-harakat, ishda avvalgi axloqiy tajribalar natijasi o'z aksini topadi. Ota-onalar ko'pincha: "Hech qachon o'g'lim shunday ish qilishi mumkin deb uylamagan edim!",- deyдилar. Bu ularning bolaning avvalgi nojuya ishlari, bir qarashda unchalik ahamiyatli bo'lmagan ishlarni taxlil kilmaganligi natijasi. Vaxolanki, anna shu arzimagan ish bolaning xulq-atvorida kamchilikning mustaxkamlanishiga yordam beradi va pirovardida qonunbuzarlikka olib keladi.

Analogiya (o'xshashlik). Ota-onalar o'xshash vokea, xodisa, ishlarni esga oladilar va bolaning xulq-atvoridagi tipik belgilar asosida sodir bo'lgan voqeaning va o'z vaqtida chora kurilmasa ro'y berishi mumkin bo'lgan voqea-hodisalarning real manzarasini ko'z oldiga keltiradilar.

Taxminiy fikrlarni ilgari surish. Nojuya ishni bola birovning tashabbusi bilan kilgani, o'zi esa qandaydir sabablarga ko'ra buni tan olmayotganligi o'z-o'zidan ko'rinib to'rgan bo'lsa, bu usul ko'p qo'llaniladi. Taxminiy fikrlar shunday bo'lishi mumkin: bolaning tengdoshlaridan yoki kattalardan kim o'g'li yoki qiziga ko'proq e'tibor berishini, nima uchun e'tibor berayotganligini o'ylab ko'rish; vokea sodir bo'lish vaqtida vujudga kelgan holatlarni eslash; vokea arafasidagi bolaning psixik holatini taxlil qilish; uning xatti-harakatlari, ishlari boshqa kishilarga bog'liqligini aniqlash; o'zini bolaning urniga kuyib ko'rish ("Men qanday ish tutgan bular edim?"); bular asosida paydo bo'lgan taxminiy fikrlarni real vokea-xodisalar bilan taqqoslash.

Haqiqatni aniqlash metodi. Avvalo bu bola va ota-onalarning, urtoklari va dustlarining haqiqiy aybni ochib berishi, bolani o'z-o'zini taxlil qilishga, o'z ishiga tankidiy nazar bilan qarashga, ob'ektiv bo'lishga va o'ziga nisbatan talabchanlikka undashi kerak. Ko'rsatib o'tilgan metodni qo'llash natijasida bola o'zi haqidagi haqiqatni tinglashni o'rganishi va pirovard natijada o'zining xatti-harakatlarini anglashi zarur. Bularning hammasi rostguylik, vijdonlilik, burch va ma'suliyat xissi tarbiyalash uchun sharoit yaratadi.

Haqiqatni aniqlash metodi ota-onalarga ham, bolalarga ham bo'lib o'tgan voqea-hodisa bo'lganlardan sabok olishga yordam beradi. Bolaning nojuya

ishlarida doimo uning o'zining ham, ota-onalarning ham aybi bo'ladi. Bu ota-onalarni bolaga uning aybini ko'rsatib berishlariga va kelgusida shunga o'xshash vaziyatlar bo'lganda qanday yo'l tutish, undan qanday saklanish kerakligini tushunishga majbur etadi. Agar ota-onalar bolaga o'zini qanday tutish kerakligining birnecha variantini tanlab oladigan vaziyatni taxlil kilsalar ma'kul bo'ladi. Bunda ota-onalar tomonidan o'g'il yoki qizining axloqi ustidan nazorat o'rnatish lozim bo'ladi.

Tabiiy oqibatlar metodi. Agar nojuya ish kilingan bo'lsa, bolani uning oqibatlarini to'zatishtga, ma'naviy yoki moddiy zararining urnini tuldirishga o'rganish zarur. Masalan, sindirdingmi – to'zatisht kuy, bo'zib kuydingmi – pul ishlab top va bo'zgan narsaning olib ber, xakorat yoki xafa qildingmi – kechirim sura va xokazo. Bunda ota-onalar nojuya ish qilishga olib kelgan sababni bartaraf etishlari, takroran axloqsizlik qilish yoki xato ishlarga yo'l qo'ymaslik choralarini ko'rishlari, nojuya harakat (ish)lar qilishga undagan kishilarni fosh etishlari zarur. Agar haqiqat qaror topgan va bola kilgan nojo'ya ishlaridan noo'rin xattixarakatlardan afsuslanayotgan bo'lsa, xato to'zatishtgan deb hisoblash mumkin.

Asosiy pedagogik shart: kilingan nojuya ish bilan bog'liq bo'lgan salbiy kechinmalar uzoq davom etmasligi kerak, ammo xaddan tashkari tez uno'tilmasligi ham zarur. Salbiy kechinmalar darajasi bolaning o'ziga xos xususiyatlariga, nerv sistemasining tipiga, sodir etilgan nojuya ishga bog'liq bo'ladi. Jazolash ota-onalarning ma'lum vaqtga boladan o'zoklashib ketishi o'zini undan chetga olib yurishi bilan kushib olib borilishi mumkin. Bunda salbiy xis-tuyg'ular bilan birga kaygurish, ya'ni ota-onalarning bola bilan birga mayuslik, g'amginlik xolatda bo'lish, azoblanish, or-nomus xissini boshdan kechirishi yaxshi ta'sir etadi. Bu ochik-oydin adovat, zidlik yoki bo'lib o'tgan vokeani xadeb eslab turishga qaraganda bolaga kuchli ta'sir ko'rsatadi.

Agar oilada bolani to'zatisht uchun sharoitlar bo'lsa, qayta tarbiyalash metodlari va usullari quyidagilardan iborat: ota-onalar bir-birlari bilan normal munosabatlar o'rnatadilar, pedagogik xatolarga yo'l qo'ymaslikka harakat

qiladilar, o'zlarining bolaga bo'lgan munosabatlarini, o'zlarining hayotiy pozitsiyalarini o'zgartirdilar.

Betinch oilalardan bo'lgan bolalar bilan olib boriladigan qayta tarbiyalash ishlari anchagina qiyinchiliklar tugdiradilar. Bu ko'pchilik xollarda shaxsning bo'zilishidagi asosiy manba – bolaning oiladagi nokulay hayot sharoitlarini bartaraf etish mumkin emasligi bilan bog'liqdir. Agar ota-onalarning birontasi o'zini, vaziyatni nazorat qilishga qodir bo'lganida edi – unga qandaydir tavsiyalar berish mumkin bulardi. Agar buning iloji bo'lmasa, ularning ikkalasi piyanista bo'lsa, nasixatlar bilan kimga murojaat qilish kerak? Bunda birdan bir yo'l azob chekayotgan bolaning o'ziga, unga esa yordam berish lozim. Bu yordamni maktab, adliya organlari, jamoatchilik qo'ni-qo'shni, maxalla ko'rsatishi mumkin.

Betinch oilalardan bo'lgan bolalar, odatda, mediko-pedagogik tadbirlarni talab etadilar. Nevroz, psixopatiya va boshqa kasalliklar faqat psixikaga yomon ta'sir etuvchi salbiy ta'sirlarni yo'qotish bilangina bartaraf etiladi. Bola yashayotgan sotsial-psixologik sharoitni sog'lomlashtirish, unda ruxiy kasallik uyg'otgan kishilar bilan munosabatni yaxshilash yoki bolani xavfli muxitdan chiqarib olish birinchi va zaruriy shartlardandir. Ana shundan keyingina ratsional psixoterapiya qo'rsini o'tash, balki statsionar sharoitda tibbiy qayta tarbiyalash ishlarini tashkil etish mumkin.

Bolani hamma – kishilar, tabiat, san'at, fan sport tarbiyalaydi. Lekin barcha tashki ta'sirlarni u bevosita o'z ota-onalarining ma'naviy dunyosi orqali idroq etadi. Ana shuning uchun ham ota-onalarning fuqarolik pozitsiyasi tarbiyaning zaruriy shartidir.

3. Ta'lim tizimida qiyinchiliklari bo'lgan o'quvchilar bilan olib boradigan tuzatish ishlarning mazmuni.

Muntazam ravishda o'qitishni boshlash bola hayotida muhim bosqich hisoblanadi. Bola maktabga o'qishga kelganida maktabgacha tarbiya davrida bolada yuzaga kelgan odatiy hayot tarzida tub o'zgarishlar sodir bo'ladi, maktabda bo'lsa yani sharoitlar va yangi tanishlar, xulqining yangi shakli, faoliyatning yangi shakli - o'qish boshlanadi. Shu bilan birga harakatlanish faolligi keskin pasayishi (statistik yuklama) va bola butun organizmining funksional imkoniyatlari katta ish bajarishini talab etuvchi murakkab aqliy ishlar (aqliy yuklama) kuzatiladi. Zamonaviy maktabda o'qitishning o'ziga hosligi tobora ortib borayotgan axborotlar hajmi, materialni ancha jadal o'tilishi o'quv dasturlarini doimiy takomillashtirish va murakkablashtirish bilan ifodalanadi. Albatta o'qishda bunday sharoitlar kichik yoshdagi o'quvchi organizmiga juda katta talablar qo'yadi va bolalar mana shu davrda o'z sog'liqlariga zarar etkazmasliklari, o'qishga qiziqishlarini, o'zlariga, o'z kuchlariga bo'lgan ishonchlarini yo'qotmasliklari muhimdir.

Ko'pchilik o'qituvchilarning xafsalalari, sabrlari tugaydi. "U hech qachon joyida jim o'tirmaydi. Umeni bezor qiladi! Men har doim uni tartibga solib turishim kerak!" - o'qituvchilardan biri o'quvchi to'g'risida shunday eslaydi.

Bolalari xulqida, uning o'qishida qiyinchiliklarni ko'rmaydigan, ko'pchilik qiyinchiliklarga sabab o'qituvchining haddan tashqari talabchanligi deb tushunadigan ota-onalar bilan suhbatlashish o'qituvchiga qiyin bo'ladi. O'qituvchi esa o'z navbatida ota-onalarda talabchanlik etarli emas, deb hisoblaydi. Shuning uchun ko'pincha oralarida o'zaro tushunmovchiliklar, bmr-bmrlaridan xafa bo'lish, nizolar kelib chiqadi, shunda bola eslaridan ham chiqib qoladi. Lekin faqatgina o'qituvchi va ota-onalarning birgalikdagi ishlari natijasidagina bolaga yordam ko'rsatish mumkin.

O'qituvchi ishidagi asosiy qoida iloji boricha chidamlilik va pedagogik ishlarida bola xususiyatlarini doim hisobga olishdan iborat. Shu bilan birga o'zini tuta bilmaydigan bolaning bir faoliyat turidan ikkinchisiga kirishishi og'ir o'tishini hisobga olish kerak. Shuning uchun unga ishga kirishib ketishi uchun vaqt bering, hadeb shoshiltirmang. U ko'pincha juda sekin harakat qiladi, ishni boshlagan bo'lishi kerakligiga qaramay xali ham daftarini tayyorlamagan, narsalarini erga tushirib yubordi, besaramjon. Shunday bo'lsada ortiqcha tanqid qilmang, ayniqsa qattiq gapirmang. Dars paytida baqirishi, sinfda yurishi, o'rtoqlari oldiga kelishi mumkin. Shunday hollarda gap ham. Jazolash ham, urishish ham yordam bermaydi. Xulqi yomonligini gapirish o'rniga hotirjam, talablarni bajarishga qaratilgan asosli harakatlar qilish kerak. Bola sinf jamoasida qanday vaziyatga tushib qolishi, o'qituvchi tomonidan jah bilan yoki do'stona munosabatga duch keladimi bu katta ahamiyatga ega. Bunda uning intizomsizligi yanada kuchayishi mumkin yoki aksincha o'qituvchining hotirjamliligi va do'stona munosabatini xis etadi.

Bunday bolalarni pedagogik tuzatishda qo'llaniladigan turli choralari orasida ularga katta jismoniy kuch talab etuvchi har xil faoliyat turlarini taklif etish maqsadga muvofiqdir. Ko'pchilik hollarda bunday bolalar tinchlantirishga muhtoj bo'ladilar. Ba'zida bolaga "muhim" vazifa topshirib uni chalg'itish foydali bo'ladi. Hech qachon noto'g'ri harakatlariga e'tiborni qaratish kerak emas. Bolaga uning xulqidagi kamchiliklarni qanday qilib tuzatish mumkinligini hotirjamlik bilan tushuntirish foydalibroq bo'ladi - nimalar yaxshi, qaysi tomonlarini xali tuzatish kerak, lekin buni bola bilan yakkama-yakka holda bajarish lozim. Qilgan har bir yaxshi ishini esa butun sinf oldida maqtash mumkin va kerak.

Boshlang'ich maktabda o'qitishdagi qiyinchiliklarda bolalarga yordam berishning eng samarali yo'li – ularga e'tiborli bo'lish, do'stona munosabat va chidamlilik, bolalardagi kamchiliksababini tushunish istagi va bunday bolalarga alohida yondoshishni topa bilish hisoblanadi.

Xulosa:

Shuni eslatib o'tamizki, o'zini muntazam ravishda tarbiyalab borgan kishigina yaxshi tarbiyachi bo'lishi mumkin. Bu eskirgan haqiqat bizni kasbiy jixatidan o'zini-o'zi tarbiyalash bilan jiddiy shugullanuvchi yosh pedagogga uning qiyin va ma'suliyatli ishida foydali bo'ladigan qoidalar ruyxatini berishga majbur etadi. Shu bois o'zimiz to'zgan quyidagi ruyxatni keltiramiz.

Tibbiy pedagogik reglament

1. Pedagog tarbiyalanuvchilar oldida kuchli harakterga ega bo'lgan shaxs sifatida namoyon bo'lish kerak. Irodasiz, bushang tarbiyachi o'z tarbiyalanuvchilaridan harakteri kuchli, mustaxkam irodali kishini tarbiyalay olmaydi.

2. Har doim, hamma narsada kuyilgan maksad sari intilish, bolalar bilan birga boshlagan ishini oxiriga etkazishi, qat'iylik ko'rsatish kerak.

3. Qandaydir xato va nuqsonlar ustidan kulmaslik. Bolalar biror narsani bilmaganlarida sabr-tokatli bo'lish, ular ataylab bilmaganlarida esa beparvolik qilish lozim.

4. hayotning barcha laxzalarida: bolalar bilan keskin tuknashuv, ish vaqtida bolaning pichok yoki bolta bilan o'ziga shikast etkazishi, yaqin orada paydo bo'lgan xavf (yongin chiqishi), dengiz yoki daryoda tusatdan tufon kutarilishi, ko'tilmaganda elektr simning buzilishi, bolaning muassasadan kochib ketishi, bolalarning shov-shuv gap bo'ladigan ishi, o'zoq eksqo'rsiya vaqtida yo'ldan adashib qolish, kasallikning xuruj qilishi, bolalarga yoki tarbiyachining o'ziga qaratilgan bir onli gazab va xokazolar vazminlik ko'rsatish va o'zini yo'qotmaslik.

5. Bolalar bilan bo'ladigan suxbatlarda (gaplashganda) vazminlik bilan aniq, shoshilmay oxista imkon boricha ovozini kutarmay gaplashish. Ammo ma'lum bir xollarda xadeb u yoq bu yokka yuraveradigan bolani to'xtatish, yuzaga kelayotgan mojaroning oldini olish talab etilganda tovushini baland qilib gapirishga yo'l kuyiladi. Shuni yodda tutish kerakki, xadeb baland tovush bilan gapirish bolalalarni asabiylashtiradi.

6. Bamaylixotir, ishonch bilan harakatlanish, ortik darajada xovlikmasdan yurish lozim. Bolalar juda ham maktanchok bo'lishini, tarbiyachi o'zining axloq-odobi, yurish-turishi bilan ularga ta'sir ko'rsatishi mumkinligini yodda tuting.

7. Bolalarga aytilayotgan fikrlar, berilgan tanbex va maslahatlar qat'iy va ishonchli bo'lishi kerak. Agar aytayotgan fikrlardan shubxalansang, ularni asoslab berolmasang, yaxshisi ularni aytmagan ma'kul.

8. Kam gapirib, ezmalikka yo'l qo'ymaslik kerak. Shuni unutmangki, xaddan ziyod ko'p tushuntirish – bolalar uchun o'ylash, ularga fikr yuritishga imkon bermaslikdir O'qituvchi, tarbiyachi tomonidan aytilgan fikr, g'oya bolalarda shaxsiy fikr uygonishiga turtki bo'ladi. Shu bilan birga bolalarga kiska, aniq, oddiy tilda gapirish kerakligini unutmang.

9. Ozoda va poqiza ko'rinish, yuz-qo'llarning tozaligi, kiyim - boshlarning ham toza va betartibli bo'lishi, o'ziga zeb berib yurish yaxshi pedagogga xos fazilatdir. Namuna, o'rnak – bolani yaxshi yoki yomon tomonga etaklovchi

tarbiyachi ekanligini unutmang. Pedagog nafosat bilan oddiy, zeb-ziynatsiz, chiroyli qiyinishi kerak.

10. Bolalar ko‘z oldida kulgili holatga tushib kolmaslik uchun o‘zining tashki kiyofasiga qarab yurish lozim.

11. Bolalar bilan munosabatda odillikka rioya qilish. Har qanday imtiyozlarga, erkatoylar bo‘lishiga yo‘l qo‘ymaslik. Turli xildagi munosabatlar bo‘lishi mumkin va shunday bo‘lishi kerak. Ammo garazli munosabatlar bo‘lmasligi lozim. Bu ma’noda bolalar juda sezgir bo‘ladilar.

12. Bolalar oldida muassasagi tartiblar, pedagoglar va boshqa xodimlar (yordamchi xodimlar ham) haqida taajub va noroziliklar bildirmaslik kerak. Bu xususda bolalar shikoyat bilan murojaat kilsalar ish bilan shaxsan tanishmaguncha hech qanday fikr aytmalik zarur.

13. Bolalar oldida ularning o‘zlari yoki boshqa bolalar haqida, bizning kuzatishlarimiz, bolalarga berilgan harakteristika, ularning oila sharoitlari, irsiyatlari hamda bolalar tomondan o‘z bilgicha foydalanishi mumkin bo‘lgan boshqa ma’lumotlar to‘g‘risida salbiy yoki ijobiy fikr bildirmaslik lozim.

14. Tarbiyachilar, o‘qituvchi va texnik xodimlarning axloqiga taaluqli har qanday xayratomuz gaplarga ishonmaslik kerak. Bolalarning ko‘rsatmalari noaniqligini, ularni voqea xodisalarini bo‘rtirib ko‘rsatishi, aql bovar qilmaydigan uydirmalarni, maxsus bolalarning o‘ta ishonuvchanligini yodda tutish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov I.A. “Milliy istiqlol g‘oyasi – xalqimizning ishonchi va e’tiqodi”. T.: “O‘qituvchi” 2000
2. Karimov I.A. “O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari”. T. “O‘zbekiston” 1997
3. Karimov I.A. “Bunyodkorlik yo‘lidan”. I jild. T.: “O‘zbekiston” 1996
4. mualliflar guruhi. Istiqlol davrida oila qadriyalarining transformatsiyalashuv jarayonlari. Farg‘ona 2007
5. S.Mannopov. Oila va oilaviy munosabatlar sotsiologiyasi. Ma’ruzalar matni. Farg‘ona 2007
6. “Bola va zamon” jurnali. Respublika bolalar ijtimoiy moslashuvi markazi. № 4. 2009
7. Ijtimoiy ishchining muloqotchanlik malakalari. Tarqatma materiallar. Toshkent 2007
8. S.Tadjieva., D.Sabirova. “Oila va bolalar bilan ijtimoiy ish”. Kurs o‘tkazish uchun xrestomatiya. Toshkent 2009
9. Чичерина Я.Е., Бондарева Е.В., Нуркелдиева Д.А. Хрестоматия для проведения тренинга “Основы социальной работы с детьми инвалидами и их семьями”. Ташкент 2010
10. G‘anieva M.X. Ijtimoiy ish asoslari. Metodik qo‘llanma Toshkent 2010
- Ijtimoiy ishchining kasbiy talqini. Toshkent 2007

11. Шевченко С.Г. Коррекционно – развивающие обучения. – М., ВЛАДОС
1999

12. Гуревич К.М. Индивидуально – психологические особенности школьников.
– М. 1991